# O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengash yig‘ilishida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga belgilab berilgan TOPSHIRIQLAR

barcha xizmatlar bo‘yicha davlat idoralari va aholi o‘rtasidagi munosabatlarni aholining o‘zi baholaydigan tizimni tuman kesimida yaratish;

davlat tashkiloti va davlat ulushi bo‘lgan korxonalarda maxsus dasturiy ta’minot o‘rnatilgan infokiosklarni birinchi galda sog‘liqni saqlash, ta’lim, kommunal xizmatlar, qurilish, soliq, bojxona idoralarida, davlat xizmatlari markazlarida o‘rnatish va ishga tushirish;

oliy ta’lim tashkilotlarida “Korrupsiya – kelajakka tahdid” degan g‘oya asosida talaba va yoshlarning korrupsiyaga qarshi loyihalari, startap va innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- tarbiya fani doirasida o‘g‘il-qizlarga halollik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni sodda tilda tushuntirib borish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o‘quvchilari va talabalarining maxsus dasturlar asosida ta’lim olishlarini tashkillashtirish;

- Virtual akademiyada kamida ikki million yoshlarni ularda halollik, qonunga itoatkorlik munosabatini shakllantirishga qaratilgan dastur bo‘yicha o‘qitish.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025 yil 25 apreldagi 147-son buyrug‘i bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi -

**“Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida**”gi PF-71-son Farmonida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash yuzasidan nazorat-reja;

**“Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PQ-147-son qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.



**Korrupsiyaga qarshi kurashish jarayoni hech qachon aniq muddat bilan cheklanmaydi. Ushbu masalada faqat davlatning sa’y-harakati bilan kutilgan natijaga erishib bo‘lmaydi. Bu – butun jamiyatimizning ishi.**

**Sh.M.Mirziyoyev**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**E’tiboringiz uchun rahmat!**